



MUSIQA TINGLASH FAOLIYATI ASOSIDA KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TASAVVURI RIVOJLANTIRISH

Nurmatova Iroda Toxtasinovna - Nizomiy nomidagi TDPU

"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasи o'qituvchisi

irodanur@inbox.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa tinglash faoliyatini tashkil etishning shakl, usul va vositalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilari musiqa tinglash jarayonida bolaning ijodiy tasavvuri, musiqiy idroki rivojlanadi. Ushbu maqolada musiqa tinglash tashkil etishda bolaning ijodiy tasavvuri rivojlanishi haqida fikr mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: Tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, usul, vosita, ansambli, orkestr, xor, ohang, ritm, dinamik, registr, temp.

Musiqani tinglay bilish va undan zavqlana olish ham katta san'at hisoblanadi. Insonda musiqa tinglash madaniyati yoshlikdan rivojiana boshlaydi. Insonlarda musiqa tinglash madaniyati yoshlikdan shakllanadi. MTTlarda bolalar musiqa tinglash ko'nikmalariga ega bo'la boradilar. Avvalo shuni qayd etish lozimki, kishining kuylash imkoniyatidan ko' ra, tinglash imkoniyati kengroq bo' ladi. Musiqa tinglash orqali bolalarning badiiy idroki rivojlanadi. Musiqashunos olimlar bolalarni musiqiy tarbiyalashda musiqa tinglash faoliyatiga alohida e'tibor bermoqdalar. Zero, har bir insonning musiqa madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishda musiqa tinglash ko'nikmasi muhim o'rin egallaydi.

Bola, musiqa mashg'ulotlarining barcha faoliyatları jarayonida, musiqani tinglab, uni idrok etadi, Ammo musiqa mashg'ulotining musiqa tinglash qismi oidida, o'ziga xos jiddiy vazifalar turadi. Avvalo, shuni eslatish lozimki, insonda kuylash imkoniyatlariga ko'ra, tinglash imkoniyatlari ancha keng bo'iadi. Masalan: milliy cholg'u asboblar ansambli, orkestr, xor, yakka cholg'u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab idrok etish mumkin. Shuning uchun ham musiqa tinglash jarayonida bolalarning badiiy idroki yaxshi rivojlanib boradi. Musiqa tinglash - musiqiy faoliyatning o'ziga xos turidir. Uning o'ziga xosligi shundaki, u bolaning musiqa va umumiyy ruhiy rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Musiqa tinglash orqali bola dunyoni butun rang-barangligi bilan o'rganadi, chunki



musiqa uni tovushlarda har tomonlama va to'liq aks ettiradi. Musiqa "his-tuyg'ular tili" deb ataladi va u bolalarning hissiy sohasini rivojlantirish uchun boshqa hech narsa bilan taqqoslab bo'lmaydigan imkoniyatlar beradi. Musiqa san'ati aqliy tarkibni ham o'z ichiga oladi. B.V. Asafyev shunday yozgan: "Biz nafaqat his qilamiz yoki ma'lum bir holatlarni boshdan kechiramiz, balki tanlaymiz, baholaymiz, demak, fikrlaymiz". Musiqani idrok etish va tahlil qilishda bolaning fikrashi va tasavvuri, ixtiyorilik va bilishga qiziqishi rivojlanadi. Musiqa haqida hikoya qilish va uni tahlil qilish jarayonida maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqi rivojlanadi, u ancha mazmunli, tasviriy va ifodali bo'lib boradi.

Musiqa tinglash - universal faoliyat turi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan musiqa dasturlarida u alohida bo'lim sifatida ajratilgan, musiqa tinglashsiz boshqa turdagи musiqiy faoliyatlarni tasavvur qilib bo'lmaydi: qo'shiq, raqs, orkestr asarini o'rganishdan oldin yoki dramatik o'yin ustida ishlashni boshlashdan avval ularni albatta tinglash kerak. Musiqa tinglash orqali bolalar turli janrlardagi musiqiy asarlar, yorqin ifoda vositalari bilan tanishadilar. Musiqa, eng avvalo, his-tuyg'ular tilidir. Bolani yorqin hissiy bo'yoqdagi asarlar bilan tanishtirish orqali uni hamdardlik qilishga, eshitganlar haqida o'ylashga undaydi. Bolalar tasavvurida musiqa har doim nimadir haqida hikoya qiladi, shuning uchun ular musiqaning mazmuni haqida hikoya kutishadi, dasturiy pyesalar, qo'shiqlarning she'riy matnlariga jonli qiziqish bildiradilar.

Musiqa tinglash va idrok etish ko'nikmalarini rivojlantirishda bolaning musiqiy-sezgi idrokining ahamiyati katta. U bolalarda turli xil tovush va ularning eng oddiy birikmalari idrokini rivojlantirishni nazarda tutadi. Maktabgacha yoshda sezgi qobiliyatlari turli xil musiqiy-didaktik o'yinlar o'tkazish jarayonida rivojlanadi. Ularda asarning hissiy-ma'naviy mazmunini ifodalovchi tovush birikmalari o'rinni olgan. Tovushning balandligi, ritmi, tembri va dinamik xususiyatlari musiqiy faoliyatning vositasi hisoblanadi.

Musiqa tinglash mustaqil faoliyat turi sifatida quyidagi harakatlardan iborat: ushbu faoliyat turi uchun maxsus yaratilgan asarlarni tinglash. Qo'shiqlar, xorovodlar, raqlar, bolalar orkestri uchun pyesalarni o'rganish jarayonida tinglash. Didaktik o'yinlarda tovush xususiyatlarini aniqlash maqsadida tinglash. Musiqiy idrokning rivojlanishi asosida asarning ifodali ijrosi, uning mazmunini ochishga yordam beradigan so'z va ko'rgazmali vositalardan mohirona foydalanish yotadi. Olti yoshli bolalar bilan eshitilgan musiqani yaxshiroq idrok qilish uchun, masalan, keng qamrovli suhbatlar o'tkazish mumkin, bunda ularning e'tibori musiqiy obrazning rivojlanishiga jalb qilinadi, alohida ifodali musiqiy vositalarning vazifasi



tushuntiriladi. Musiqa tinglash faoliyatida bolalarga asarning mazmuni haqida so'zlaganda, musiqaning unda aks etgan hayotiy hodisalar bilan bog'liqligini ko'rsatish zarur. Musiqaning mazmuni, agar badiiy adabiyot - qisqa obrazli hikoya, ertak, she'r jalb qilinsa, bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinadi. Shunday qilib, musiqa tinglashda turli xil ko'rgazmali qurollardan foydalaniladi. Bu ko'rgazmalilik xarakteri bolaning musiqa haqida qo'shimcha ma'lumotni qayerdan olishiga bog'liq. Yaqin atrofdagi ijrochini yoki yozuvni tinglagen bola musiqani turlicha idrok etadi: musiqa rahbari ijrosida biror fortepiano pyesasini bir necha marta eshitgach, bolalar keyin tanish musiqani orkestr ijrosida mammuniyat bilan qabul qiladilar. Bunday taqqoslash tufayli ular bir xil asarning turli xil ovozlari haqida ko'rgazmali tasavvurga ega bo'ladilar.

Eshitish ko'rgazmaliligidan tashqari, xuddi shu maqsad - musiqiy asarning mazmunini ochish uchun, uni yaxshiroq idrok etish uchun, ko'rgazmali qurollarni ham qo'llash mumkin: kitob rasmlari, illyustrasiyalar. Bolalarning musiqiy idrokini faollashtiradigan turli metodik qo'llanmalar ham qo'llanilishi mumkin. Misol keltiramiz: raqsga tushayotgan va marsh qilayotgan bolalar tasvirlangan kichik kartochkalar tayyorlanadi. Raqs yoki marshni tinglagen bolalar tegishli rasmi kartochkani ko'rsatishadi. Rasmlarda tez va sekin harakatni aks ettiradigan yuguruvchi va yuruvchi bolalar tasvirlangan. Tempning o'zgarishi bilan ikki yoki uch qismli pyesani tinglagen bolalar flanellografda yangi qismning boshlanishini kerakli ramziy rasm bilan belgilaydilar. Asarni tinglagen bolalar nafaqat musiqaning mazmunini tushunishlari, balki uning alohida ifoda vositalarini ham ajrata olishlari kerak. Shuning uchun idrokni shakllantirishda ma'lum bir ketma-ketlik zarur. Quyidagi bosqichlar ajratiladi: yaxlit idrok, asarning umumiylar xarakterini anglash (birinchi tanishuvda, tinglashda), tabaqlashgan idrok, asardagi alohida epizodlarni farqlash (qayta tinglashda); musiqiy obrazning rivojlanishi bilan bog'liq holda alohida vositalarning ifodali rolini anglash va qayta yaxlit idrok.

Har qanday musiqiy asar bolalar tomonidan bir necha marta tinglanadi. Shunday ish metodikasi nazarda tutiladiki, qo'shiq yoki pyesa bilan har bir yangi uchrashuv bolaga quvonch keltiradi, u bu asarda oldin hali farqlanmagan yangi narsalarni bilib oladi. Asar bilan birinchi tanishuv - bu musiqani yaxlit idrok etish, uning umumiylar xarakterini anglashdir, shuning uchun asarni ifodali ijro etish, uning qisqacha tavsifini berish va ba'zi xususiyatlarini ta'kidlash muhimdir. Qayta tinglash paytida bolalarning e'tibori nafaqat umumiylar g'oyaning badiiy ifodasiga, balki uning alohida detallariga ham qaratiladi. Yaxshi tanlab olingan, bolalar uchun tushunarli bo'lgan musiqiy asarlarni muntazam tinglash katta foyda keltiradi. Bolalar musiqani



sevib qoladilar, ularda eshitish qobiliyati rivojlanadi, musiqa tinglash, undan zavqlanish ehtiyoji paydo bo'ladi. Kelajakda opera teatrlarida ko'p uchraydigan hodisalarni - musiqa ijro etilayotganda suhbatlarni kuzatishga to'g'ri kelmaydi. Bu musiqa madaniyatining yetishmasligini anglatadi. Uni bolalarga erta yoshdan boshlab singdirish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Nurmatova I.T. Theatrical activity as a means of developing the creative abilities of younger preschoolers., Modern problems of science and yedugation., 15.12.2022., 136-140pp. International scientific and current research conferences. Virginija.USA.
2. Nurmatova I.T. Development of creative activity of older preschool children by means of theaterized activity., european international journal of pedagogics.ISSN: 2751-000X., Pages: 20-25. SJIF – 5,983. <https://www.eipublication.com>.
3. Nurmatova I.T. Maktabgacha yos'hdagi bolalar hayotida musiqaning o'rni va roli. Maktabgacha ta'lim tizimida kadrlar tayyorlash: innovatsiyalar va ilg'or xorijiy tajriba. Respublika ilmiy-amaliy seminari. Tos'hkent. 2019. -B. 119-121.
4. Nurmatova I.T. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga musiqiy ta'lim berishda tarbiyachining faoliyati / "Maktab va hayot" jurnalı. 5-son. (161) 2021 2010-5460 ISSN – B. 24. (13.00.00 №4).
5. Гогоберидзе, А.Г. Детство с музыкой [Текст] / А.Г. Гогоберидзе, В.А. Деркунская. – СПб. : ДетствоПресс, 2010.
6. Вострякова, В.В. Слушание музыки как средство развития творческого воображения у детей старшего дошкольного возраста. ДОШКОЛЬНАЯ ПЕДАГОГИКА И ПСИХОЛОГИЯ.2015. – В.86-89.
7. Sadikova, S., & Sultanmuratova, Y. (2022). THE IMPORTANCE OF TEACHING STREET SAFETY TO CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Science and innovation*, 1(B7), 1519-1521.
8. Nasreddinova, K., & Sadikova, S. (2022). FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN IN A BILINGUAL ENVIRONMENT. *Science and innovation*, 1(B7), 1440-1444.